

YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti
Ziyoyeva Mavluda*

Annotatsiya

Ushbu maqolada respublikamiz ta'lim tizimidagi talablar, dolzarb vazifalar, islohotlar zamirida erishilayotgan yuksak natijalar va yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari haqida atroflicha so'z yuritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar ta'lim, tarbiya, o'dob, axloq, ma'naviyat, milliy qadriyat, jamiyat, bilim, oila, shaxs, sog'lom farzand, imon-e'tiqod, urf-odat, vatanparvarlik,

Yosh avlodni komillika yetaklovchi eng katta kuch – bu kitob va hayotiy saboqlardir. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kelajakni, millatni va milliyligimizni boqiy ozod holda ko'rishimiz mumkin.

Oilada axloqiy tarbiya. Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta'kidlab o'tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham manan sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov sog'lom avlod to'g'risida fikr yuritib: «Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalosog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi-fikri sog'lom, imon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman», deb takidlaganlar.

Farzand tug'ilgan kundan boshlab dastlab oila muhitida tarbiyalandi. Bu davrda bolani to'g'ri ovqatlantirish, to'g'ri parvarish qilish juda muhim. Bir yoshgacha bo'lgan davrda bola o'ziga yaqin kishilarni ko'rganda xursand bo'ladi, rangdor o'yinchoqlarni xush ko'radi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'likligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimlilik, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat. xush ko'radi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli

qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vtanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, ms'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha. Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya - lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqyelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Nafosat tarbiyasi «badiiy tarbiya» sifatida ham qo'llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma'noga ega bo'lib, faqat san'at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va boshqalar vositasida go'zallikni his qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san'at (adabiyot, musiqa, qo'shiq, tasviriy va san'atning boshqa yo'nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg'ularni shakllantirishni nazarda tutadi.

Nafosat tarbiyasi insonda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi, uri rivojlantiradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'likdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Nafosatdan rohatlanishda faqat san'at asarlarigina emas, balki ezgu ishlar, jamoaga hurmat, sadoqat, vijdonan mehnat qilish muhim o'rin tutadi. Nafosat tarbiyasining mohiyati shundan iboratki, u go'zallikka bo'lgan munosabatni qaror toptiradi. Go'zallikka bo'lgan tuyg'uni rivojlantirmay turib, yuqori mehnat madaniyatiga erishib bo'lmaydi. Mehnat faoliyatida paydo bo'lgan go'zallik butun

tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib bordi, u mehnat faoliyatining o'ziga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Mehnat jarayonida tayyorlangan har bir buyum (tovar)ning ahamiyati, funksiyasi, zaruriligi insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidagina emas, balki uning qanchalik go'zalligi bilan ham baholanadi. Go'zallik bu hayotning o'zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlarning mukammalligidir.

Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishdan asosiy maqsad, ularning ona Vatan oldidagi burchi, o'z taqdiri uchun ma'sul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilar hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Oila ta'lim - tarbiya maskani bo'lib, milliy g'oya va ma'naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirish aynan oiladan boshlanadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi va bu jarayon yuksak ma'naviyatlilikni talab etadi. Mustaqillik yoshlar kamolotida yangicha talablar ham qo'ydi. Har qachongidan ko'ra ko'prok ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Yoshlardagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lishi kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar talab etila boshlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy sohalarda ham islohotlar olib borish zaruriyati nazarda tutildi. "Biz uchun, - degan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov, "...ma'naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim" Binobarin sog'lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek, sharqona axloq - odob va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiya topgan insonni ham ko'zda tutmog'i lozim. Zero, buyuk alloma A. Avloniy aytganidek: "tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir"⁶. Hayotga ongli munosabatda bo'ladigan, mustaqillik g'oyalari va maqsadlaridan faxrlanadigan inson turmushi va faoliyatida estetik zavq, ulug'vorlik shakllanadi va taraqqiy etadi. Shuning uchun O'zbekiston mustaqillikka erishgach, islohotlarni keng ko'lamda isiyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalarda avj oldirib yuborgan ekan, bu islohotlar negizini uch ming yillik davlatchilik tariximiz, ma'naviy merosimiz va milliy mentalitetimiz xususiyatlari tashkil qildi va uni og'ishmay amalga oshira boshladi.

O'zbek xalqida asrlar davomida shakllangan, avlodan- avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odatlarimizning o'quvchilar tarbiyasida ahamiyati juda beqiyosdir. Masalan har bir kishi salom berish, ota-onani qadrlash, kattalarga hurmat, yoshlarga mehr-shafqat, mehmondo'stlik, chanqagan odamga suv, keksalarga joy berish, qo'l yuvmoqchi bo'lgan kishining qo'lga suv qo'yish, sochiq tutush, bemorlarni borib ko'rish, keksalarga yordam berish kabi urf-odatlarimiz bor. Bola tarbiyasida oilaning o'rni katta. Har bir oilaning oilaviy qadriyatlari, urf-odatlari axloq

va odob qoidalari mavjud. Milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz oilada, keyinchalik esa bu qadriyatlar bog'chada va maktabda o'zluksiz ravishda olib boriladi. O'zbek milliy urf-odatlarimizni kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ongida shakllantirish juda muhimdir.

Chunki insonning ma'lum bir xarakterli inson bo'lib yetishishida yoshlikdagi olingan tarbiya juda muhim rol o'ynaydi. Inson hayotining keyingi davrlaridagi olingan tarbiya esa uning xarakteriga kam ta'sir qiladi.

Hadislarimizda yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqshdir deb bejizga aytilmagan. Bizning yoshlarimiz eng avvalo ma'naviy yetuk bo'lishlari lozim. Bir-birlarini hurmat qilishi ko'cha-kuyda uchraganda albatta salom berishlari kerak. Bular muqaddas hadislarida ham aytilgan:- Salom berib kirmagan odamni ho'zuringizga qo'ymanglar!. Yoshlar, odamlar bir-birlariga nega salom berishlarini tushunib yetishlari kerak. Arabchada "Assalomu alaykum" degan so'z, sizga, [oilangizga tinchlik](#), omonlik, totuvlik tilayman degani. Biz o'qituvchilar iloji boricha o'quvchilarga har bir urf-odatimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni hayotdagi misollar bilan tushuntirsak, ularda qiziqish ortadi. Rivojlangan mamlakatlardan biri Yaponiyada bola maktabga borganda birinchi o'quv yilida faqatgina axloq va odob qoidalari urf-odatlar o'zining milliy qadriyatlari o'rgatilar ekan.

Bizda ham mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin milliy, tarixiy meroslar, urf-odatlar, qadriyatlarga asoslangan tarbiyaga ehtiyoj tobora sezilmoqda. Chunki shu paytgacha ayrim sabablarga ko'ra ko'r-ko'rona g'arb madaniyatiga sajda qilib o'zimiznikini chetga surib qo'ygan, sal bo'lmasa o'zimizni, o'zligimizni, tilimizni, madaniyatimizni, urf-odatlarimizni unutayozgan, yo'qotayozgan edik. Ana shulardan kelib chiqib maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bugungi kunda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishda milliylikka asoslangan yangicha g'oyalarni kashf etishi ish faoliyatida mahorat bilan yondashishi lozimdir.

Biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy ongini o'stirib, o'z milliy g'ururlarimizni anglatib tarbiyalasak, albatta O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo'ladi. Buyuk davlatni esa o'z vatanini sevadigan, yuksak madaniyatli, o'z millatidan g'ururlanadigan kishilarsiz tasavvur qilish qiyin. Tarbiya jarayonida o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosiga, an'analariga sharqona milliy qadriyatlarga tayangan holda ish ko'rishni nazarda tutadi. Axloqiy tarbiyada **izchillik**, **tizimlilik** - tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi qoidasi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda [izchillikka rioya qilishni](#), o'quvchiga birdaniga juda ko'p talab qo'ymaslikni, tarbiyada maktab oila, jamoatchilik talabining bir xil bo'lishini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ongida axloqiy tarbiyani shakllantirishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Oilada, ta'lim-tarbiya maskanlarida ijobiy muhit, qat'iy tartib, ayniqsa ta'lim-tarbiya jarayoni har jihatdan mukammal bo'lsa, unda kamol

topayotgan avlodlar kelajagi ularning ota-onalari kutganidan ham nurafshon bo'lajak. Mustaqil Vatanimiz istiqboli uchun esa ana shunday barkamol avlod albatta kerak.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. — Б. 156. Инглхарт Р. Модернизация, культурные изменения и демократия // Последовательность человеческого развития. — Москва: Новое издательство, 2011. — С. 464.
2. Пожалуйста, не забудьте правильно оформить цитату: Худайкулов, Обиджон. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida / Обиджон Худайкулов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 51 (289). — С. 517-519. — URL: <https://molu.karimov> I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008, - 138 - 140 - bet.
3. Mamarasulov B.Sh. Milliy g'oyaning substansional va institutsional xususiyatlari (O'zbekiston misolida). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati. - Samarqand. - 2018. 12 - bet.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 - tom. - M.: "Rus tili", 1981. 520 - bet.
5. Bobomurodov M. Duronov M. Bunyodkor kuch. "Tafakkur" jurnali. - 2003, -№3.- 17 - bet.
6. Yoqubov S. Axborot jamiyati: xayolot emas, haqiqat. Tafakkur. - 2007,- №4. -
7. Zokirov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari. Tafakkur. - 2007,- №2.- 15 -bet.
8. Dalkonov E.T. Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishning bog'liqlik qonuniyatlari (Ijtimoiy falsafiy tahlil). Falsafa fanlari nomzodi... dissert. Avtoreferati.-T., 2011. 12 - bet. 24 - bet.
9. ch.ru/archive/289/64891/ (дата обращения: 27.04.2023).